


14-dars. Yaxlit sonlar



1. Sonlarga ularning mos **xonalari tarkibini** tanlang va ushbu minerallarning har biri qanday nomlanishini toping.



70 400



4 700

granit

7 ta o'n minglik va 4 ta yuzlik

ametist

7 ta yuz minglik va 4 ta birlik



700 004



4 007

listvenit

4 ta minglik va 7 ta birlik

lazurit

4 ta minglik va 7 ta yuzlik

Agar son bir yoki bir nechta nol bilan tugasa, u **yaxlit son** deb ataladi.

6 420

845 610

40 000

240



2. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Ulardan qaysilarida **yaxlit son** hosil bo'ladi?

a) $297 + (34 - 18) : 4$

b) $508 - (47 + 13) : 6$

d) $438 + 48 : 6 \cdot 9$

e) $224 - (73 - 65) \cdot 3$



3. Uyni bir hafta isitish uchun 21 chelak ko'mir kerak bo'ldi. Uyni 10 kun davomida isitish uchun necha chelak ko'mir kerak bo'ladi?



4. Qutida 100 ta bo'r bor edi. Birinchi haftada 32 ta, ikkinchi haftada esa 34 ta bo'r ishlatildi. Qutida nechta bo'r qoldi?



5. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $7 \text{ m } 8 \text{ dm } 3 \text{ cm} - 4 \text{ m } 7 \text{ dm } 8 \text{ cm} + 3 \text{ m } 6 \text{ dm } 9 \text{ cm}$

b) $2 \text{ dm } 4 \text{ cm } 8 \text{ mm} + 5 \text{ dm } 5 \text{ cm } 7 \text{ mm} - 4 \text{ dm } 2 \text{ cm } 6 \text{ mm}$



6. Mahsulotlardagi tuz miqdori jadvalidan foydalanib, har bir o'quvchi qancha tuz iste'mol qilganligini aniqlang.

mahsulot nomi	tuz miqdori (gramm)
bir kosa sho'rva	3
sariyog' va pishloqli buterbrod	5
kolbasali buterbrod	4
somsa	4
sabzavotli salat	1
bir stakan pomidor sharbati	2

- a) Jasur bir kosa sho'rva ichdi va ikkita somsa yedi.
 b) Sardor ikkita kolbasali hamda bitta sariyog' va pishloqli buterbrod yedi.
 d) Akmal sabzavotli salat va kolbasali buterbrod yedi.
 e) Madina bitta somsa yedi va bir stakan pomidor sharbati ichdi.



7. Karyerdan 7 ta mashinada qum tashildi. Tushgacha har bir mashina 6 martadan, tushdan keyin esa 4 martadan qatnadi. Shu kuni karyerdan jami necha mashina qum tashilgan?



8. Qutichada **zumrad**, **olmos**, **yoqut** kabi qimmatbaho toshlar bor. To'rttasidan tashqari barcha toshlar zumrad. Uchtasidan tashqari barcha toshlar olmos. Beshtasidan tashqari barcha toshlar yoqut. Qutichada har bir turdagi toshdan nechtdan bor?



9. Bitta kichik bochkadagi karamni tuzlash uchun 3 oshqoshiq tuz kerak bo'ladi. Shunday 5 ta kichik bochkadagi karamni tuzlash uchun necha oshqoshiq tuz kerak bo'ladi?

10. Ifodalarning qiymatini hisoblang. **Yaxlit sonlarni** aylanaga oling.

- a) $765 - (903 - 621) + (415 - 298)$
 b) $128 + (500 - 194) - (800 - 658)$

